**XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 28-fevral VII-4-55-8-117-K/25 Termiz tumani

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Termiz tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Sattarovning 2025 yil 22-yanvardagi 14-00622-son xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Termiz tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Sattarovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **1-ilovaga**muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi orinbosari **(**Sh.Qalandarov**)**ga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (J.Taxchiyeva)zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NAZAROV SHUXRAT
XUDAYBERDIYEVICH

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-4-55-8-117-K/25 -son qaroriga
1-ilova

# Mahalliy kengash tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyentlar natijasida 2025-yil soliq stavkalarining 2024-yilga nisbatan o‘sish sur’atlari to‘g‘risida MA’LUMOT

| № | Tuman va shaharlar nomi | III. Noruda qurilish materiallari bo‘yicha, ming so‘mda (1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash mumkin) | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘rtacha o‘sish sur’ati | qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi | | | | | G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar | | | | |
| | | | 2024-yil stavka | 2025-yil minimal qiymat | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish, % | 2024-yil stavka | 2025-yil minimal qiymat | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish, % |
| 1 | Termiz tumani | 137 | 4,2 | 5,0 | 1,2 | 6,0 | 143 | 4,2 | 4,6 | 1,2 | 5,5 | 132 |

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-4-55-8-117-K/25 -son qaroriga
2-ilova

# Mahalliy kengash tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyentlar natijasida 2025-yil soliq stavkalarining 2024-yilga nisbatan o‘sish sur’atlari to‘g‘risida MA’LUMOT

| № | Tuman va shaxarlar nomi | IV. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, so‘mda (0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash mumkin) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘rtacha o‘sish sur’ati | Iktisodiyotni barcha tarmoqlari uchun | | | | | | | | | | Sanoat korxonalari uchun | | | | | | | | | | Alkogolsiz va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (pivo va vinodan tashqari) | | | | | Avtotransport vositalarini yuvish uchun | | | | |
| | | | Yer usti | | | | | Yer osti | | | | | Yer usti | | | | | Yer osti | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish | 2024-yil stavka | 2025 bazaviy | koef-t | 2025-yil stavka | O‘sish |
| 1 | Termiz tuman | 281 | 345 | 700 | 1,3 | 910 | 264 | 415 | 850 | 1,3 | 1 105 | 266 | 638 | 700 | 1,3 | 910 | 143 | 760 | 850 | 1,3 | 1 105 | 145 | 34 160 | 38 000 | 1,3 | 49 400 | 145 | 2 700 | 15 000 | 1,3 | 19 500 | 722 |